



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 2 (4)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**2**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Аслонов С.М., Амиджанова М.М.</b> Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
<b>Умаров И.Ю.</b> Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
<b>Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M.</b> Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
<b>Mamajonova N.A.</b> Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
<b>Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B.</b> Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
<b>Bahromov Sh.F.</b> Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
<b>Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A.</b> Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
<b>Юсупов М.Х.</b> Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
<b>Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д.</b> Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
<b>Гулямова Н.Х.</b> Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
<b>Arziboyeva R.S.</b> Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
<b>To‘raboyev Q.Q.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
<b>Tojiboyev I.I.</b> Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
<b>Xolmirzayev I.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
<b>Saidova M.J.</b> Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
<b>Usmonova N.A.</b> Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
<b>Xaydarov M.T., Jannazarova G.K.</b> Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
<b>Худайназарова Д.Г.</b> Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
<b>Madaminov A.M.</b> O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
<b>Zufarova G.A.</b> Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
<b>Ergashev I.I.</b> Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
<b>Sativaldiyeva G.X.</b> Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
<b>Kamilova A.N.</b> Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
<b>Базарова Г.Г.</b> Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
<b>Turabov B.T.</b> Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
<b>Xamzaev A.N.</b> Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
<b>Xamzaev A.N., Mirzajonov M.</b> Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

<b>Raximova L.Sh.</b> Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	<b>141</b>
<b>Nosirov S.N.</b> ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>146</b>
<b>Maxkamov X.M.</b> Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	<b>150</b>
<b>Hamrakulova M.F.</b> Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	<b>153</b>
<b>Mirzayeva L.S.</b> O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	<b>157</b>
<b>Очилов Ж.Ж.</b> Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	<b>160</b>
<b>Usubjonov Z.V.</b> Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	<b>165</b>
<b>Bekmurodov N.X.</b> Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	<b>170</b>
<b>Yusupova M.B.</b> Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	<b>175</b>
<b>Xudayberdiyev O.A.</b> Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	<b>179</b>
<b>Bo'stonova N.A.</b> Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	<b>187</b>
<b>Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D.</b> O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	<b>192</b>
<b>Hamidova Sh.O.</b> Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	<b>196</b>
<b>Abdullayeva Z.S.</b> Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	<b>199</b>
<b>Duvshatova N.K.</b> Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	<b>203</b>
<b>Усманова А.Б.</b> Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	<b>207</b>
<b>Qidirniyozov A.Sh.</b> Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	<b>213</b>
<b>Dexkanova Sh.K.</b> Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	<b>217</b>
<b>Gulimboyev S.I., Rejapov X.X.</b> Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	<b>221</b>
<b>Mamatov B.S.</b> O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	<b>226</b>
<b>Kamoldinova N.A.</b> Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	<b>231</b>
<b>Aminboyev J.O.</b> Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	<b>235</b>
<b>Maxramova N.Y.</b> Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	<b>241</b>
<b>Usmanova S.S.</b> Innovative development of the pharmaceutical industry.....	<b>245</b>
<b>Faxriddinova N.N.</b> Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	<b>250</b>
<b>Захирова Г.</b> Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	<b>254</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	<b>258</b>
<b>Sharapova N.K.</b> Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	<b>264</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	<b>272</b>

**SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA MEHNATNI NORMALASHTIRISH TIZIMINING O‘RNI VA AHAMIYATI**

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ СТАНДАРТИЗАЦИИ ТРУДА В ПОВЫШЕНИИ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE LABOR STANDARDIZATION SYSTEM IN INCREASING LABOR PRODUCTIVITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES**

**Kamilova Anora Nasirovna**

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mehnatni normalashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini oqilona tashkil etish, ish vaqtdan samarali foydalanish hamda xodimlar mehnatini adolatli baholashning muhim vositasi sifatida yoritiladi. Maqolada mehnat me‘yorlarini belgilashning amaldagi holati, ularning mehnat unumdorligiga ta‘siri va mavjud muammolar atroflicha ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va ilg‘or tajribalar asosida mehnatni normalashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** mehnat unumdorligi, mehnatni normalashtirish, mehnat me‘yorlari, ish vaqtdan foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligi.

В данной статье научно анализируется роль и значение системы стандартизации труда в повышении производительности труда на промышленных предприятиях. Стандартизация труда рассматривается как важный инструмент рациональной организации производственных процессов, эффективного использования рабочего времени и справедливой оценки труда работников. В статье всесторонне рассматривается текущее состояние стандартизации труда, ее влияние на производительность труда и существующие проблемы. Также обозначены пути совершенствования системы стандартизации труда на основе современных подходов к управлению и передового опыта.

**Ключевые слова:** производительность труда, стандартизация труда, трудовые стандарты, использование рабочего времени, эффективность производства.

This article scientifically analyzes the role and importance of the labor standardization system in increasing labor productivity at industrial enterprises. Labor standardization is highlighted as an important tool for rational organization of production processes, effective use of working time, and fair assessment of employee labor. The article comprehensively examines the current state of labor standardization, their impact on labor productivity, and existing problems. It also outlines ways to improve the labor standardization system based on modern management approaches and best practices.

**Keywords:** labor productivity, labor standardization, labor standards, use of working time, production efficiency.

Hozirgi globallashuv va raqobat sharoitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligi darajasiga bevosita bog‘liqdir. Mehnat unumdorligi iqtisodiy o‘shishning muhim omili bo‘lib, u ishlab chiqarish hajmini oshirish, tannarxni kamaytirish, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash hamda xodimlar daromadlarini ko‘paytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarida mehnat

unumdorligini oshirish masalasi bugungi kunda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirishga ta‘sir etuvchi omillar turli xil bo‘lib, ularning ichida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va normalashtirish tizimi alohida o‘rin tutadi. Mehnatni normalashtirish tizimi ishlab chiqarish jarayonida bajariladigan ish hajmi, sarflanadigan vaqt, xodimlarning mehnat yuklamasi va ish sharoitlarini me‘yoriy jihatdan belgilash orqali mehnat jarayonini oqilona tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu tizim korxonalarda ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, ish vaqtining yo‘qotilishini kamaytirish hamda xodimlarning mehnat faolligini oshirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi hisoblanadi [1]. Mazkur kodeks 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan bo‘lib, unda mehnatni tashkil etish, ish vaqti, dam olish vaqti, mehnat sharoitlari hamda mehnatga haq to‘lash masalalari huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Mehnat kodeksida ish beruvchining xodimlar mehnatini oqilona tashkil etish, mehnat me‘yorlarini joriy etish va ularni takomillashtirib borish majburiyatlari belgilangan bo‘lib, bu holat mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining huquqiy asosini yaratadi. Shuningdek, mehnat me‘yorlarini belgilash va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VM-465-sonli “Mehnat me‘yorlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartibi to‘g‘risida” qarori bilan tartibga solinadi [2]. Ushbu qarorda mehnat me‘yorlarining turlari, ularni ishlab chiqish metodikasi, mehnatni normalashtirish bo‘yicha mas‘ul subyektlarning vakolatlari hamda nazorat mexanizmlari aniq belgilab berilgan. Qaror sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiluvchi muhim normativ hujjat hisoblanadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3]. Mazkur strategik hujjatda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va normalashtirish mexanizmlaridan keng foydalanish zarurligi ta‘kidlangan.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mehnatni normalashtirish tizimi yetarli darajada joriy etilmagan korxonalarda ish vaqtining samarasiz sarflanishi, xodimlar mehnat yuklamasining notekis taqsimlanishi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining oshib ketishi kuzatiladi. Aksincha, mehnatni normalashtirish tizimi puxta yo‘lga qo‘yilgan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari uzluksizligi ta‘minlanadi, xodimlarning mas‘uliyati va mehnat intizomi kuchayadi hamda mehnat unumdorligi barqaror o‘sib boradi. Shu bois, sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish, amaldagi qonun hujjatlari asosida tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish masalasi iqtisodiy fanlarda uzoq yillardan buyon muhim tadqiqot obyekti sifatida qaralib kelinmoqda. Iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini saqlash va resurslardan oqilona foydalanish masalalarida mehnat omilining tutgan o‘rni alohida ta‘kidlanadi. Shu jihatdan qaralganda, mehnat unumdorligini oshirish faqat texnologik modernizatsiya yoki investitsiya hajmini ko‘paytirish bilan cheklanmay, balki mehnat jarayonining ichki mexanizmlarini ilmiy asosda tashkil etishni ham talab qiladi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda mehnat unumdorligi ko‘pincha ishlab chiqarish hajmining mehnat resurslariga nisbati sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy yondashuvlarda ushbu ko‘rsatkich faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatidan ham baholanadi. Ya‘ni, xodimlarning kasbiy malakasi, ish vaqtdan foydalanish darajasi, mehnat intizomi va ishlab chiqarish muhitining tashkil etilishi mehnat unumdorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida e‘tirof etiladi. Aynan shu omillarni tizimli ravishda boshqarish mehnatni normalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Mehnatni normalashtirish masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ushbu tizim mehnatni ilmiy tashkil etishning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Normalashtirish jarayoni orqali ish vaqtining me‘yoriy sarfi, bajariladigan ish hajmi va xodimlarning funksional yuklamasi aniq belgilanadi. Natijada, mehnat jarayonida tasodifiylik darajasi kamayadi, ishlab chiqarish intizomi mustahkamlanadi va mehnat natijalari bilan ish haqi o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchayadi. Bu esa xodimlarning rag‘batlanishini oshirish orqali mehnat unumdorligining barqaror o‘shishiga zamin yaratadi. Ayrim ilmiy ishlarda mehnatni normalashtirish tizimi sanoat korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborot manbai sifatida baholanadi. Chunki mehnat me‘yorlari ishlab chiqarish quvvatlarini rejalashtirish, xodimlar sonini optimallashtirish va tannarxni shakllantirish jarayonlarida asosiy hisob-kitob bazasi vazifasini bajaradi. Shu sababli, mehnatni normalashtirish tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan yoki eskirgan bo‘lgan korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi va mehnat unumdorligining pasayishi kuzatilishi qayd etiladi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda mehnatni normalashtirish tizimi faqat an‘anaviy ishlab chiqarish sharoitlari bilan cheklanib qolmay, balki raqamlashtirish jarayonlari bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqilmoqda. Xususan, sanoat korxonalarida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, raqamli boshqaruv tizimlari va axborot texnologiyalarining joriy etilishi mehnat me‘yorlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Bu esa mehnatni normalashtirish tizimini doimiy ravishda yangilab borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda mehnat unumdorligi va mehnatni normalashtirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinar ekan, ushbu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida qaraladi. Mehnat unumdorligi natijaviy ko‘rsatkich bo‘lsa, mehnatni normalashtirish ushbu natijaga erishish vositasi sifatida talqin etiladi. Shu bois, ayrim tadqiqotchilar mehnatni normalashtirishni mehnat unumdorligini oshirishning institutsional omili deb baholaydilar.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda sanoat korxonalarida mehnatni normalashtirish tizimining joriy etilishi xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi qayd etiladi. Xususan, mehnat yuklamasining adolatli taqsimlanishi, ish vaqtdan samarali foydalanish va ish haqi tizimining shaffofligi xodimlarning mehnatga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Bu holat mehnat unumdorligini oshirish bilan birga, kadrlar almashuvining kamayishiga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ayrim ilmiy ishlarda mehnatni normalashtirish tizimi mehnat muhofazasi va xavfsizligi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Mehnat me‘yorlarining ilmiy asosda belgilanishi xodimlarning ortiqcha jismoniy va ruhiy zo‘riqishini oldini olishga yordam beradi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonida baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar xavfi kamayadi, bu esa uzoq muddatda mehnat unumdorligining barqaror saqlanishiga xizmat qiladi.

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining amaliy samaradorligini baholash uchun rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida tahlil o‘tkazish muhim hisoblanadi. Ushbu tahlil jarayonida sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligi dinamikasi, ish vaqtining samaradorligi hamda mehnatni tashkil etish darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganildi. Tahlil uchun asosiy axborot manbasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan e‘lon qilingan rasmiy statistik to‘plamlar va yillik hisobotlar ma‘lumotlaridan foydalanildi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o‘shishi bilan bir qatorda mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Biroq ushbu o‘shish barcha korxonalarda bir xil sur‘atda kechmayotgani, mehnatni normalashtirish tizimi joriy etilgan va etilmagan korxonalar o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlanadi. Aynan shu jihat mehnatni normalashtirish tizimining mehnat unumdorligiga ta‘sirini statistik tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Quyidagi jadvalda 2019-2023-yillar davomida sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligining o‘zgarishi hamda mehnatni normalashtirish bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan.

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan davrda sanoat ishlab chiqarish hajmi indeksi barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligi va ish vaqtdan foydalanish ko‘rsatkichlari (2019–2023-yillar)

Yillar	Sanoat ishlab chiqarish hajmi indeksi (%)	Mehnat unumdorligi indeksi (%)	Ish vaqtdan foydalanish darajasi (%)	Mehnat me‘yorlari joriy etilgan korxonalar ulushi (%)
2019	106,8	104,2	84,5	52,1
2020	101,1	100,3	82,7	54,6
2021	107,4	105,8	85,9	58,3
2022	109,1	107,6	87,2	61,9
2023	111,3	109,4	88,6	65,7

**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari [6].

Ayniqsa, 2021–2023-yillarda ishlab chiqarish hajmining sezilarli oshishi bilan birga mehnat unumdorligi indeksida ham mutanosib o‘shish kuzatilmoqda. Bu holat ishlab chiqarish jarayonlarining takomillashuvi va mehnat resurslaridan samaraliroq foydalanish bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ish vaqtdan foydalanish darajasining 2019-yildagi 84,5 foizdan 2023-yilda 88,6 foizga yetgani mehnatni tashkil etish va normalashtirish mexanizmlarining bosqichma-bosqich takomillashib borayotganidan dalolat beradi. Ish vaqtining yo‘qotilishini qisqartirish, mehnat jarayonlarini me‘yorlash va ishlab chiqarish intizomini kuchaytirish natijasida mehnat unumdorligining o‘shishi ta‘minlangan. Alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan jihat shundaki, mehnat me‘yorlari joriy etilgan korxonalar ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Agar 2019-yilda ushbu ko‘rsatkich 52,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda u 65,7 foizga yetgan. Mazkur tendensiya sanoat korxonalarida mehnatni normalashtirish tizimiga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Amaliy kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, mehnat me‘yorlari joriy etilgan korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlari aniq rejalashtiriladi, xodimlar yuklamasi me‘yoriy asosda taqsimlanadi va natijada mehnat unumdorligi yuqori bo‘ladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarining o‘shishi faqat ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan emas, balki mehnatni normalashtirish tizimining amaliy joriy etilishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Mehnat me‘yorlari mavjud bo‘lgan sharoitda ish vaqtdan foydalanish samaradorligi ortadi, ishlab chiqarish jarayonida bekor turishlar kamayadi va xodimlarning mehnat natijalari aniq baholanadi.

Umuman olganda, rasmiy statistik ma’lumotlar asosida o‘tkazilgan tahlil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimi muhim iqtisodiy va tashkiliy omil ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu tizimni keng joriy etish va uni zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlariga mos ravishda takomillashtirish mehnat unumdorligining barqaror o‘shishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uning samarali ta‘minlanishi ko‘p jihatdan mehnatni normalashtirish tizimining qay darajada to‘g‘ri va puxta joriy etilganiga bog‘liqdir. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mehnatni normalashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish, ish vaqtdan foydalanish samaradorligini oshirish, xodimlar mehnat yuklamasini oqilona taqsimlash hamda mehnat natijalari bilan rag‘batlantirish mexanizmlarini uyg‘unlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida aniqlangan tendensiyalar mehnat me‘yorlari joriy etilgan korxonalarda mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari barqaror o‘shib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mehnatni normalashtirish tizimi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, mehnat intizomini mustahkamlash va ishlab chiqarish xavfsizligini ta‘minlashga ham xizmat qiladi. Demak, sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish bo‘yicha amalga

oshiriladigan chora-tadbirlar tizimida mehnatni normalashtirishni takomillashtirish, uni zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullari bilan uyg‘unlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi hamda korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 30.04.2023, [www.lex.uz](http://www.lex.uz) .
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.07.2025 yildagi “Mehnat normalarini ishlab chiqish va joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 465-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
4. Kamilova, A., and Egamberdiyev Sh. "Setting a time norm in enterprises and its effect on the performance of the team" Экономика и социум 2-1 (129) (2025): 268-271.
5. Anora K., Shavkatbek E. Korxonada innovatsion texnologiyasi-iqtisodiy samaradorlik oshishi kaliti //Modern education and development. – 2025. – T. 40. – №. 4. – С. 83-89.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

УДК: 331.5(575.1)

**ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ – ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА И ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ**

**O‘ZBEKISTONDA BANDLIK – MUAMMOLARNI YECHISHNING AMALIY MEKANIZMLARI VA TAHLILNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI**

**EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN – THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ANALYSIS AND PRACTICAL MECHANISMS FOR SOLVING PROBLEMS**

**Базарова Гулнора Гуламовна**

доцент кафедры «Экономики» Андижанского государственного технического института, кандидат экономических наук.

**Аннотация**

В статье исследуются теоретико-методологические подходы к анализу занятости населения и практические механизмы регулирования рынка труда в Республике Узбекистан. Актуальность исследования обусловлена демографическим давлением (доля трудоспособного населения превышает 60%) и необходимостью адаптации системы занятости к рыночным условиям. Цель работы — систематизировать теоретические основы анализа занятости и оценить эффективность внедряемых в Узбекистане практических механизмов решения проблем трудоустройства. Методологическую базу составили структурно-функциональный анализ, сравнительный метод и анализ статистических данных. В результате исследования выявлено, что при общем снижении уровня безработицы до 4,8% и бедности до 5,8% (2025 г.) сохраняются структурные диспропорции между системой профессионального образования и требованиями рынка труда. Новизна работы заключается в комплексном анализе трансформации институтов занятости: перехода от надзорных функций к сервисной модели, внедрения цифровых платформ и механизма «профессиональных ваучеров». Сделан вывод о необходимости дальнейшего совершенствования методологии оценки эффективности программ занятости на уровне махаллей.